

GESTATION VA SURUNKALI ARTERIAL GIPERTENZIYADA
HOMILADORLIK KECHISHINING KLINIK-LABORATOR VA
DOPPLEROMETRIYA KO'RSATKICHLARI QIYOSIY TAHLILI

Medetbayeva N.T.

Ilmiy raxbar: Babadjanova G.S., t.f.d., professor

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Dolzarbligi: Homiladorlikdagi gipertenziv holatlar akusherlik amaliyotida ona va perinatal asoratlarning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Gestatsion gipertenziya odatda homiladorlikning ikkinchi yarmida yuzaga keladigan funktsional gemodinamik buzilish bo'lsa, surunkali gipertenziyada qon tomir devorida remodellanish, endotelial disfunktsiya va mikroangiopatik o'zgarishlar homiladorlikdan oldinva tug'ruqdan 42 kundan keyin ham kuzatiladi. Preeklampsiya patogenezining zamonaviy kontseptsiyasiga ko'ra, platsentar perfuziyaning buzilishi, spiral arteriyalar remodellanishining yetarli emasligi, angiogen va antiangiogen omillar muvozanatining buzilishi hamda sistemali yallig'lanish javobi markaziy o'rin tutadi. Surunkali arterial gipertenziya fonida bu jarayonlar ertaroq rivojlanadi, natijada fetoplaysentlar yetishmovchilik xavfi oshadi.

Maqsad: Gestatsion va surunkali arterial gipertenziyasi bo'lgan homilador ayollarda klinik, laborator va dopplerometriya ko'rsatkichlarining patogenetik asoslangan qiyosiy tahlilini o'tkazish.

Material va metodlar: Tadqiqotga gestatsion gipertenziya va surunkali arterial gipertenziyasi bo'lgan homilador ayollar hamda nazorat guruhi jalb etildi. Quyidagi tekshiruvlar amalga oshirildi:

-klinik baholash: arterial bosim dinamikasi, shishlar, nevrologik shikoyatlar;

-laborator tahlillar: umumiy qon tahlili, trombositlar soni, jigar fermentlari, koagulogramma, proteinuriya;

-ultratovush va dopplerometriya: bachadon arteriyalarida qarshilik indeksi, pulsatsiya indeksi, fetoplatsentar qon aylanishi holati.

Natijalar qiyosiy va patogenetik nuqtai nazardan tahlil qilindi.

Natijalar: Surunkali arterial gipertenzivasi bo'lgan homilador ayollarda klinik jihatdan arterial bosimning barqaror yuqori darajada saqlanishi, shishlar va bosh og'rig'i kabi belgilar ertaroq namoyon bo'ldi. Laborator tahlillarda ushbu guruhda trombositlar sonining pasayishi, jigar fermentlarining oshishi va proteinuriya holatlari ko'proq kuzatildi. Bu holat endotelial shikastlanish va mikroangiopatik jarayonlarning faollashuvi bilan izohlanadi. Koagulyatsiya tizimida giperkoagulyatsion o'zgarishlar qayd etildi, bu esa platsentar mikrotsirkulyatsiyaning buzilishiga zamin yaratadi. Dopplerometriya tekshiruvida surunkali arterial gipertenziya guruhida bachadon arteriyalarida qarshilik indeksi yuqoriroq bo'lib, diastolik qon oqimining pasayishi va fetoplatsentar qon aylanishining kamayishi kuzatildi. Bu o'zgarishlar fetoplatsentar yetishmovchilik va homila o'sishdan orqada qolish xavfi bilan bog'liq bo'ldi. Gestatsion gipertenzivada esa klinik va laborator o'zgarishlar asosan homiladorlikning kechki muddatlarida rivojlandi va nisbatan funktsional xarakter kasb etdi. Dopplerometriya ko'rsatkichlaridagi buzilishlar ham surunkali arterial gipertenzivaga nisbatan kamroq ifodalandi.

Muhokama: Olingan natijalar surunkali arterial gipertenziya fonida patogenetik jarayonlar chuqurroq ekanligini ko'rsatadi. Endotelial disfunktsiya, oksidativ stress va angiogen omillar muvozanatining buzilishi platsentar ishemiyani kuchaytiradi. Bu holat laborator markerlarda (trombositopeniya, jigar fermentlari oshishi, koagulyatsiya buzilishi) hamda dopplerometriyadagi gemodinamik o'zgarishlarda aks etadi. Gestatsion gipertenzivada patogenetik o'zgarishlar ko'proq funktsional xarakterga ega bo'lib, ular platsentar invaziyaning qisman buzilishi bilan bog'liq. Shu bois klinik-laborator va

ultratovush ko'rsatkichlarini kompleks baholash gipertenziv holatlarni differentsial diagnostika qilish va asoratlarni erta prognozlash imkonini beradi.

Xulosa: Surunkali arterial gipertenziya gestatsion gipertenziyaga nisbatan homiladorlik kechishida chuqurroq patogenetik buzilishlar va og'irroq gemodinamik o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Trombotsitlar soni pasayishi, jigar fermentlari oshishi, koagulyatsiya tizimidagi o'zgarishlar va bachadon arteriyalarida qarshilik indeksi oshishi fetoplatsentar yetishmovchilikning muhim markerlari hisoblanadi.

